

Naimov.M.O'.

SURXONDARYO FOLKLOR-ETNOGRAFIK XALQ HAVASKORLIK JAMOALARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI

NAIMOV MUZAFFAR O'RINOVICH

**SURXONDARYO
FOLKLOR-ETNOGRAFIK XALQ
HAVASKORLIK JAMOALARI**

1-qism

*Bolalar musiqa va san'at maktablari
uchun o'quv qo'llanma*



Farg'ona - 2023

UO'K: 631.171(075.8)

KBK:40.71ya73

S 60

Naimov, Muzaffar O'rinovich. Surxondaryo folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoalari [Matn] / M.O'.Naimov. – Farg'ona, "Classic" nashriyoti, 2023. -58b.

Mazkur o'quv qo'llanmada Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritib kelayotgan folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoalari haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Jumladan, "Xalq havaskorlik jamoasi" unvoniga ega bo'lgan "Boysun", "Quralay", "Bulbuligo'yo", "Jayhun", "Jarqo'rg'on", "Sharshara", "Mahliyo", "Qo'ng'iro't" kabi folklor jamoalarining fotosuratlarini, tarixi hamda mazkur jamoalar repertuarida foydalanilgan qo'shiqlarining nota namunalari keltirilgan.

O'quv qo'llanmadan bolalar musiqa va san'at maktablarining "An'anaviy xonandalik" yo'nalishida tahsil oluvchilar, ixtisoslashtirilgan san'at maktablari o'quvchilari ta'lim jarayonida, shuningdek, havaskor jamoalar faoliyatida foydalanish mumkin.

Mas'ul muharrir:

Rustambek Abdullayev – O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

To'raqulov Anvar – TerDU "San'atshunoslik" fakulteti dekani, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Mustafayev Shomurod – SamDU Musiqa ta'limi kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Hamidov Abdumalik – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Ilmiy-metodik jamoatchilik Respublika kengashining (Musiqa yo'nalishi) 2022-yil 28-oktabrdagi 2-qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN:978-9910-763-99-1

© M.O'.Naimov
© "Classic" nashriyoti, 2023

SO'Z BOSHI

Mamlakatimizda yosh avlodning har tomonlama yetuk, komil inson bo'lib yetishishlari uchun bugun barcha sharoitlar yaratilgan. Bolalarning musiqiy ta'limi va tarbiyasi, ularning estetik olamini boyitish va shu orqali ruhiy kamolotini ta'minlash masalasi har qachongidanda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada yurtimizda bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga alohida e'tibor qaratilib, hozirda ularning soni qariyb 400 taga yetkazilganligi fikrimiz dalilidir.

O'zbek folklor san'ati o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Bolalar musiqa va san'at maktablari-ning "An'anaviy xonandalik" yo'nalishida ta'lim olayotgan o'quvchilar musiqiy tarbiya jarayonida faqatgina mumtoz qo'shiqlarigina emas balki, folklor qo'shiqlarini ham o'rganishlari kerak. Mazkur yo'nalishda vohalar folklor jamoalari hamda qo'shiqlarini o'rganish o'quvchilarning o'quv jarayonida samarali natija beradi.

"Tengsiz ma'naviy boyligimiz bo'lmish mumtoz san'atni, xalq ijodining nodir namunalari asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodga bezavol yetkazish jahondagi ilg'or fikrli olimlar va san'atkorlarning, davlat va jamoat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir"¹, - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Mazkur qo'llanmani tayyorlash jarayonida Surxondaryoda faoliyat yutirib kelayotgan, "Xalq havaskorlik asambli" unvoniga sazovor bo'lgan "Boysun", "Quralay", "Bulbuligo'yo", "Jayhun", "Jarqo'rg'on", "Sharshara", "Mahliyo", "Qo'ng'iro't" folklor-etnografik ansambllari faoliyati bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirish maqsadida ma'lumotlar, fotosuratlar hamda qo'shiqlarning nota namunalari jamlashga harakat qilindi. Bunda bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarini folklor-etnografik ansambllar ijodidan bahramand etish hamda ularning tasavvur, bilim va ko'nikmalarini oshirish asosiy maqsad etib belgilandi. O'quv qo'llanmada keltirilgan to'y-marosim, mavsumiy, mehnat va turli mavzudagi qo'shiqlar san'atsevar bolajonlarimizning repertuarlaridan joy olishi, bolalar musiqa va san'at maktablari, ixtisoslashtirilgan san'at maktablari, folklor-etnografik jamoalar, havaskorlik ashula va raqs ansambllari a'zolari faoliyatida yaqin ko'makchi bo'lishidan umidvormiz.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan marosimdagi nutqi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil 7-aprel.

“BOYSUN” FOLKLOR-ETNOGRAFIK XALQ HAVASKORLIK JAMOASI



Boysun tumani Surxon vohasining so‘lim, go‘zal tog‘li tumanlaridan biri bo‘lib, qadimiy an‘analari, moddiy va ma‘naviy merosini saqlab qolgan, o‘zining betakror madaniyatiga ega bo‘lgan hududlardan biridir.

Jamoa 1961-yilda Boysun tuman Madaniyat uyi qoshidagi badiiy havaskorlar to‘garagi zahirida ashula va raqs ansambli sifatida tuzilib, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev va mashhur kino rejissyori Uchqun Nazarov taklifi bilan unga «Shalola» deb nom berilgan.

1986-yilda Boysun tuman madaniyat uyi qoshida “Boysun” folklor-etnografik dastasi tuziladi. Dastaga Xoliq Xursandov badiiy rahbar, Habib Umarov musiqa rahbari etib tayinlandilar. Jamoa a‘zolari o‘z oldilariga o‘zbek xalqining yo‘qolib borayotgan qadimiy madaniy merosi, qadimiy raqslari, qadimiy qo‘shiq va urf-odatlarini yig‘ib, o‘rganib, sayqal berib qayta sahnaga olib chiqishni maqsad qildilar.

1987-yil “Boysun” jamoasi Toshkent shahrida Butunittifoq xalq ijodiyoti festivali ko‘rik-tanlovining respublika bosqichida o‘zining

“Dehqonning bir yili” nomli 30 daqiqalik dasturi bilan qatnashadi. Festivalda respublika miqyosida sahnada birinchi marta o‘zbek xalqining qadimiy marosim qo‘shiqlari - “Sust xotin”, “Navro‘z”, “Xo‘p mayda”, “Chorlov”, “Lola sayli”, “Yaqqu yaq”, “Ufu-jaqala”, “Kelgin yor” kabi qo‘shiq va raqslari namoyish etiladi. Festival hakamlar hay‘ati “Boysun” jamoasining ijodini yuqori baholab, jamoa ijrosini “Oliy o‘rin”ga loyiq deb topadilar.

Shu yilda O‘zbekiston televideniyesi rejissyori Eduard Davidov bilan hamkorlikda Boysun tumanida «Boysun dastasi» dasturi asosida «Boysunda qor eriganda» nomli film-konsert, “O‘zbekkinoxronika” studiyasi rejissyori Temurmaliq Yunusov boshchiligidagi ijodiy guruh bilan hamkorlikda «Unutilgan ohanglar» nomli film suratga olinadi.

1987-yilda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan «Boysun» dastasiga «Xalq ansambli» unvonini berildi.

Jamoa Moskva shahrida “Oltin xo‘roz” xalqaro folklor festivalida ham ishtirok etgan. Festivalning 1-darajali diplomi bilan taqdirlanib, g‘olib sifatida Angliyaning Billingham shahrida o‘tadigan xalqaro musiqa festivalida qatnashish huquqini qo‘lga kiritgan.

Jamoa 1989-yilda Toshkent shahridagi “Xalqlar do‘stligi” saroyida Armanistonda zilziladan talofot ko‘rgan aholiga yordam berish maqsadida o‘tkazilgan “Xayriya” konsertiga qatnashgan va shu bilan birda Buyuk Britaniya bo‘ylab ijodiy safarda bo‘lgan. Mazkur ijodiy safar jarayonida Angliyaning 11 ta shahrida bo‘lib, o‘z dasturlarini namoyish qilgan. Xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan Boysun tumani hududi “Jahon xalq ijodiyoti durdonasi” deb e‘lon qilingan.

Jamoa YUNESKOning tashabbusi bilan Boysun tumanida “Boysun bahori” deb nomlangan festival tashkil etilib, 2001-2006-yillar hamda 2017-yildan 2019-yilgacha festivallarda ishtirok etib, yuqori natijalarga erishgan.

Uzoq yillardan buyon jamoa poytaxtimizda tashkil etiladigan Mustaqillik va Navro‘z tantanalarida faol ishtirok etib keladi.

So‘nggi yillar mobaynida «Boysun» folklor etnografik xalq ansambli quyidagi asarlarni sahnalashtirgan: “Boychechagim boylantiray”, “Navro‘zingdan o‘rgilay”, “Sumalagim”, “Yaqqu-yaqquga o‘yna”, “Bahor kelar”, “Suydirmajon”, “Hayda”, “Sizga ta‘zim”, “U yon qarab o‘yna”, “Ishim bor”, “Qashqarning yo‘li”, “Yanog‘i”, “Yangalar”, “Ayirmasin”, “Aylagay”, “Tosh ko‘chalar”, “Hamal-hamalli”, “Yorijon”, “Yallasi”, “O‘ldursin”, “Navro‘z sayli” va hokazo.

“Boysun” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilib kelinayotgan turli tanlov va festivallarning faol ishtirokchisi. Xususan, jamoa o‘tgan yillarda “Nurli navolar” xalqaro festivali (2018, 2020), Xalqaro maqom san’ati festivali (2018), Xalqaro baxshichilik festivali (2019), “Boysun bahori” Respublika ochiq folklor festivali, “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor festivali, Xalqaro hunarmandlar festivali (2020) hamda Ozarbayjon hamda Tojikiston davlatlarida o‘tkazilgan Xalqaro festivallarda (2019) faol ishtirok etgan va ko‘plab nominatsiyalar g‘olibi bo‘lgan.



“QURALAY” BOLALAR FOLKLOR-ETNOGRAFIK NAMUNALI JAMOASI



Surxondaryo viloyati Boysun tumani “Quralay” bolalar folklor-etnografik ansambli birinchi marta 1991-yilda to‘g‘arak sifatida tuzilib, Sattor Qurbonov badiiy rahbar etib tayinlangan. 1994-yilda “Quralay” jamoasiga “Namunali bolalar folklor-etnografik ansambli” unvoni berildi. Jamoada 2005-yildan U.Yuldoshev badiiy rahbar va S.Muhiddinova musiqa rahbari vazifasida ishlashgan.

2010-yil may oyida “Quralay” namunali bolalar folklor-etnografik ansambli “Bolalar havaskorlik namunali xalq ansamblari” ko‘rik-tanlovining tuman, viloyat bosqichlari g‘olibi bo‘lib, tanlovning Samarqand shahrida o‘tkazilgan respublika bosqichida Oliy o‘rin sovrindori, shuningdek, Xorazm viloyati Ichanqal’a majmuasida o‘tkazilgan “Asrlar sadosi - 2010” festivalining laureati bo‘lgan.

“Quralay” bolalar folklor etnografik namunali xalq ansamblining davomchilari 5 yoshdan 8 yoshgacha bo‘lgan “Boysun qizaloqlari” havaskorlik dastasi 2010-yil Oltinsoy tumanida “Barkamol avlod” yiliga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Badiiy havaskorlik jamoalari” ko‘rik-festivalida ishtirok etib sovrindor bo‘lgan.


Jamoa "O'zbekiston – Vatanim manim" Respublika ko'rik-tanlovi ishtirokchisi, Xalqaro "Sharq taronalari" musiqa festivali (1999), YUNESKO tashkiloti va Madaniyat vazirligi tomonidan o'tkazilgan "Boysun bahori" xalqaro ochiq festivali (2001-2005, 2017-2019), "Diyor ohanglari" Respublika televizion festivali (2006), Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida bo'lib o'tgan "Asrlar sadosi" festivali hamda "Yangi avlod" bolalar ijodiyoti festivallarining sovrindori va faol ishtirokchisi.

"Quralay" ansambli respublika, viloyat va tuman markazlarida o'tkazilgan Navro'z va Mustaqillik bayramida faol qatnashib kelmoqda.

"Quralay" bolalar folklor-etnografik namunali ansambli tomonidan so'nggi yillarda "Muchal to'yi", "Quvnoq karvonsaroy", "Dehqonbobo", "Shodiyona", "Navro'z sayli", "Yor-yor", "Para-para", "Sarbonbobo", "Chillik o'yini", "Tol yog'ochdan to'yimiz", "O'zbekiston", "O'zbek elim", "Quralay", "Aziz Vatan", "Urchuq", "Qorbobo" va boshqa bir qator qo'shiq va sahna asarlari sahnalashtirilgan.

Jamoa 2020-yil "Kelajak" folklor festivalining viloyat bosqichida ishtirok etib, tanlovning respublika bosqichiga ishtirok etishga tavsiya etilgan va yakuniy bosqichda ham sovrinli o'rinlarni egallagan.

Mazkur jamoa hozirgi kunda ham o'zining sermahsul ijodini davom ettirib, viloyat va respublika sahnalarini o'z chiqishlari bilan boyitib kelmoqda.



"BULBULIGO'YO" FOLKLOR-ETNOGRAFIK XALQ HAVASKORLIK ANSAMBLI



"Bulbuligo'yo" folklor-etnografik xalq havaskorlik ansambli 1985- yilda iqtidorli madaniyat fidoyisi Rahmatullo Mo'minov tashabbusi bilan tashkil etilgan. Rahmatullo Mo'minov "Bulbuligo'yo navolari" kitobi muallifi, "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni sohibi hamdir.

"Bulbuligo'yo" folklor-etnografik ansambli jamoasi ilk bor 21 nafar ishtirokchilardan iborat tarzda tuzilgan.

Jamoaga "Bulbuligo'yo" deb nom tanlanishida ramziy hikmat yashirin. Sababi bulbul qushlar ichida eng chiroyli ovozga ega bo'lgan, sayroqi va xushovoz qushdir. Unga barcha qushlarning havasi keladi. Jamoa ham boshqa folklor jamoalar va xalq vakillari havas qiladigan darajasiga erishishi niyatida shu tariqa nomlangan.

"Bulbuligo'yo" atamasini avvaliga "bulbulnafas", "bulbul ovoqli" ishtirokchilar hisobiga, keyinchalik jamoa borgan sayin yaxshi natijalarga erishgani sababli har kim eshitib maroq va zavq oladigan sayroqi bulbul darajasiga yetishishdek ezgu niyatda tanlandik, - deya ta'kidlaydi ansambl rahbari Rahmatullo Mo'minov.

"Bulbuligo'yo" folklor-etnografik ansambli tarkibida 10 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan yosh havaskor ijrochilar, kayvoni momolar,

aytimchi bobolar, sozandayu - xonandalar, qiziqchiyu - laparchilar, baxshiyu - raqqosalar faoliyat ko'rsatadi.

Ansambl sozandalari qadimiy cholg'u asboblardan chanqovuz, sibizg'a, shuvillak, do'mbira, surnay, nay, doiralarda Surxon vohasiga xos urf-odat va marosimlarni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlarni mahorat bilan ijro etib kelmoqda.

Jamoaning yuqori darajalarga erishishining bosh sabablaridan biri kuy, qo'shiq, raqs, libos va ijroning uyg'unligidir. "Bulbuligo'yo" folklor-etnografik ansamblining sozandalari: Elbek Nuraliyev, Muzaffar Bo'riyev, Farxod Aliqulov, Mengnor Poyonov, xonandalar: Rustam Usmonov, Muhammadi Shaymardonov, Farxod Mamataliyev, Baxtiyor Boboxonovlar.

Raqqos va raqqosalar: Muqaddas Sattarova, Rayxona Raximova, Sohibjamol Axmedova, Jamila Xidirova, Jang'iloj Bozorova, Aziza Mo'minova, Abdurahmon Rahimov, Shavkat Allanazarov, Otabek Toshev, Asror Xusanov, G'iyos Melimurodov, Bahrom Qurbonov, laparchilar: Halima Qurbonova, Ashirgul Qudratova ansamblning fidoiylari sanaladi.

"Bulbuligo'yo" folklor-etnografik ansambli milliy liboslari hamda ular tomonidan ijro etilayotgan kuy-qo'shiq va raqslari bilan Surxon vohasiga xos bo'lgan urf-odat va marosimlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Liboslarga nazar tashlar ekanmiz, bobolar jelak, mullo yoqa ko'ylak, salla, belqars, kavush-maxsi kiysalar, momolar esa kurta, g'ijima ro'mol, kashta gulli ko'ylak, qat-qat salla, sitora, xapaband, besh oyoqli sirg'a, lattiba, nozigardon, tomoqay kabi taqinchoqlardan, raqqosa qizlar esa o'z raqslarida munchoqli to'paklar hamda do'ppilardan foydalanadilar.

2000-yil "Bulbuligo'yo" folklor-etnografik ansambliga "Folklor-etnografik xalq havaskorlik ansambli" unvoni berildi. Ansambli ijodiy faoliyati davrida Respublikamizdagi ko'rik-tanlovlarda yaxshi natijalarga erishish bilan bir qatorda ko'plab ijodiy safarlar va xalqaro festivallarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Ansambl repertuari. "Bulbuligo'yo" folklor-etnografik ansambli repertuarida bugungi kunda unitilib borayotgan urf-odatlar, marosimlarni o'zida mujassam etgan milliy kuy-qo'shiqlar va raqslari bilan bir qatorda mahalliy havaskor ijodkorlarning asarlari ham o'rin olgan. Jumladan, "Mustaqil o'zbekim", "Chanqovuz jilolari", "Oybuloq", "Chipradalli", "Sumalak", "Xo'p mayda", "Surxon elim",

"Podachi", "Xadicha", "Chillik" kabi qo'shiqlar va laparlar shular jumlasidandir. Ansambl dasturlari respublikamiz televideniyesi va xorij mamlakatlari ommaviy axborot vositalari yoritilgan.

Tarixdan ma'lumki, Surxon vohasi aholisining ko'pchilik qismi chorvachilik, aksariyat qismigina dehqonchilik bilan shug'ullanib kelishgan. Shu bois vohada do'mbira, changqovuz, sibizg'a kabi qadimiy cholg'u asboblarning mohir ijrochilar avodlarining davomchilari bugungi kunda ham ko'pchilikni tashkil etadi. Bu cholg'u asboblarni o'rganish, chalish o'ziga yarasha iste'dod va mahorat talab etish bilan bir qatorda murakkabroqdir. Chunki ularda musiqa pardalari mavjud emas.

Jamoa sozandalari tomonidan ko'plab kuylar yaratilgan. Jumladan: do'mbirachi Abduhamid Yangiboyev (hozirda vafot etgan) tomonidan "Cho'pon chalish", "Oh vo", "Barchinoy", "Ot chopish", Nodirbobo (2001-yil 97 yoshda vafot etgan) tomonidan "Sibizg'a chalish", "Kakku", "Bedana sayrashi", "Halinchak", "Tuya jo'rtish", "Yorga salom", u kishining o'g'illari - 73 yoshli Rashid bobo tomonidan "Chaqiriq", "Andarhayo", "Xudoga nola", "Hillila yor", "Guligoqa", chanqovuzchi Oysoat Zokirova tomonidan "O'yin bazmi", "Yor izlab", "Gul hidlab" hamda badiiy jamoa tomonidan ijro etilgan "O'zbekimning alplari", "Qo'shig'im-qo'shiq", "Hopa-hop", "Hut keldiyo", "Shoda munchoq", "Podachi", "Suluv qizlar", "Bibigul", "Hazarispand", "Oldimho-sotdimho", "Bo'za ichib", "Sumalak", "Oynamov", "Navro'zjon", "O'rmagim", "Ho layli", "Jigit pirlari", "Jupa-toq" kabi kuy va qo'shiqlar yaratilgan bo'lib, ular ommaviy axborot vositalari orqali xalqimiz e'tiboriga havola etilgan.



“JAYHUN” FOLKLOR-ETNOGRAFIK XALQ HAVASKORLIK ANSAMBLI



2001-yil Termiz davlat universitetida folklor san'atining fidoyisi Qurbonov Sattor tomonidan “Jayhun” folklor-etnografik ansambli tashkil etildi. Jamoa a'zolari yillar davomida universitet, viloyat, respublikada o'tkazilgan madaniy tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, umumxalq bayramlari va teleradiokompaniya kanallari orqali o'zining rang-barang folklor dasturlari bilan faol ishtirok etib kelmoqdalar. Jumladan:

2001-yilda tashkil etilgan “Folklor to'garagi” dastlab universitetda o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda kichik folklor dasturlari bilan chiqishlar qilib, talabalar va professor-o'qituvchilar diqqatini o'ziga tortdi. Viloyatda o'tkazilgan “Navro'z” umumxalq bayramida Shafolat Rahmatulla Termiziy va Boltajon Sodiqovlar she'ri, Sattor Qurbonov musiqasi “Navro'zginam” nomli folklor musiqali kompozitsiyasi bilan ilk bor ishtirok etib, tomoshabinlar va xalq olqishiga sazovor bo'ldi. Ushbu dastur viloyat televideniyesi orqali namoyish ettirildi. Jamoa “Xazina-2001” respublika o'zbek folklor san'ati va urf-odatlari festivalida, Respublika oliygohlari talabalari o'rtasida o'tkazilgan “O'zbekiston – Vatanim manim” qo'shiqlar ko'rik-tanlovida “Vatan hur,

asr yangi” nomli dasturi bilan ishtirok etib diplom va rag'batlantiruvchi mukofotni qo'lga kiritdi.

Jamoa “Qo'shiqlar bayrami” ko'rik-tanlovi, “Xazina” respublika o'zbek folklor san'ati va urf-odatlari festivalining 2003 va 2005-yilgi bosqichlari, “Barhayot an'analar” festivali, “Yagonasan, muqaddas Vatan!” ko'rik-tanlovlarining yakuniy bosqichlarida folklor-etnografik xalq ansambllari orasida munosib o'rin egallab keldi.

2012-yil 2-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining yig'ilishida “Jayhun” folklor jamoasiga “Folklor-etnografik xalq havaskorlik ansambli” unvoni berildi.

Jamoa o'z repertuarlarini O'zbekiston teleradiokompaniyasining “O'zbekiston” telekanalining “Oydin hayot” va “Munosabat”, “Madaniyat va ma'rifat” telekanalining “Ona zamin ohanglari” ko'rsatuvlarida namoyish etilgan bo'lsa, viloyatning “Ishonch” teleradiokompaniyasi tomonidan “Poshhurt” qishlog'ida “Surxon navolari” nomli film-konserti, O'zbekiston teleradiokompaniyasining buyurtmasiga asosan, Surxondaryo teleradiokompaniyasi tomonidan Boysun tumanining tog'li qishlog'larida “Boysun tog' etaklarida” nomli filmlari suratga olindi. Shuningdek, Surxondaryo teleradiokompaniyasi tashabbusi bilan “Janub ovozi” hamda “Chanqovuz sadolari” nomli ko'rsatuvlari suratga olingan. Jamoa a'zolari 2016-yilda O'zbekiston teleradiokompaniyasining “Oilaviy” telekanali orqali efirga uzatilgan “Oila mundarijasi” ko'rsatuvida “Xush kelibsan, Navro'zi olam” nomli dasturi bilan chiqish qilishdi.

“Jayhun” ansambli hozirgi kunda ham Termiz davlat universiteti, viloyat va respublikada o'tkazilib kelinayotgan barcha madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqa.



“JARQO‘RG‘ON” FOLKLOR-ETNOGRAFIK XALQ HAVASKORLIK JAMOASI



Jarqo'rg'on tuman madaniyat bo'limi madaniyat markazi qoshidagi “Jarqo'rg'on” folklor-etnografik jamoasi 2013-yilda Markaz ovoz yozish studiyasi rahbari O'ktamxon Qodirov rahbarligida tashkil etilgan.

Mazkur jamoada hozirgi kunda 32 nafar ishtirokchi muntazam ravishda qatnashib kelmoqda. Jamoada Z.Raxmatova, X.Raxmatova, I.Qlichev, Sh.Raimov, S.Zulqaynarov, S.Shermatova, J.Norsoatova, S.Isirganova, R.Bo'riyeva, O.Boybo'tayev, M.Abduraxmonova, O.Yusupova, Z.Yo'ldosheva, S.Ismatova, J.Aqboyeva, O.Qurbonova, X.Xudoyberdiyeva, Z.Rasulova, A.Aqboyeva, G.Xudoyberdiyeva, Q.Aqnazarov, M.Annayeva, O'.Qodirov, S.Qurbonova, I.Djo'rayeva, Sh.Xaydarov, D.O'lmasova, B.Xolmirzayev, Sh.Xolbev, X.Xo'shboqov kabi milliy san'atimiz fidoiylari faoliyat yuritishmoqda.

Jamoa rahbari M.Annayeva boshchiligida jamoa shu kunga qadar 2013-yil “Yagonasan, muqaddas Vatan” ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida faxrli 2-o'rinni, 2015-yil “Yagonasan, muqaddas Vatan”, va “Boysun bahori” ochiq folklor festivalida faxrli 2-o'rinni egallashgan.

2014-yil Surxondaryo viloyat televideniya-sida “Surxon ohanglari” telehousida, 2018-yil “Ishonch” televideniya-sida o'z dasturlari bilan ishtirok etgan.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Hay'atining 2018-yil 15-dekabr-dagi 4-sonli qaroriga binoan, havaskorlik san'atini rivojlantirish va milliy qadriyatlarni tiklash-dagi faol xizmatlari hamda yuksak ijrochilik mahorati uchun Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani “Jarqo'rg'on” folklor-etnografik ansambliga “Xalq havaskorlik jamoasi” unvoni berildi.

Bosh mutaxassis, ovoz yozish studiyasi rahbari O'.Qodirov hamda jamoa ishtirokchilari bilan birgalikda “Xurmo”, “Minoraman deydi”, “Bobomdek bo'laman”, “Jarqo'rg'onim”, “Oq terakmi, ko'k terak”, “Qizlar zulfi kamalak”, “Assalom”, “Chorlov”, “Aytishuv”, “So'zana”, “Ha, o'yna”, “Ko'hna Surxoncha”, “Do'mbiram”, “Sibizg'a”, “Sumalakni do'qala”, “Dehqon bobo”, “Toqqa chiqdim”, “Surxon eli”, “Osmonda oylar” kabi qo'shiqlar, aytishuv va chorlovlarni, “Qoshiq”, “Pichoq”, “Cho'p”, “Urchug'im” raqslarini repertuarlar ro'yxatiga kiritishdi.

Hozirgi kunda “Jarqo'rg'on” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi yangi repertuarlari ustida tirishqoqlik bilan ijod qilib kelmoqdalar.



**“SHARSHARA” FOLKLOR-ETNOGRAFIK
XALQ HAVASKORLIK JAMOASI**



Uzoq tog‘li Vaxshivor qishlog‘ining tarixi bir necha ming yillarga borib taqaladi. Vaxshivor qishlog‘i tarixi buyuk olim, shoir So‘fi Olloyor bobomiz nomi bilan uzviy bog‘liq. Tog‘ odamlari ma‘rifatga, san‘atga yaqin bo‘lishadi, chunki ular archalarni so‘lim go‘shalarida kaklik va bulbulning xonishini eshitib uyqudan uyg‘onishadi. Tog‘ning tiniq buloqlarining mayin ovozi kuy ohangidek quloqqa yoqimli eshitiladi. Chanqovuzning ohangi esa hammasiga jo‘r bo‘ladi. Shuning uchun ham Vaxshivor qishlog‘ining odamlari san‘atga ishqivoz bo‘lishadi.

“Sharshara” folklor-etnografik dastasi 1990 yil tuzildi. Dasta ishtirokchilari o‘qituvchi, o‘quvchi, tibbiyot xodimi, dehqon, cho‘pon, nafaqaxo‘rlardan iborat bo‘ldi. (Marhum aka-uka ustozlar Yo‘ldoshov Meliqul va Sanaqul), To‘rayev Ziyodullo, Kokil bobo Yoqubov, Halimov Abdusattor, Yunusov Ashir, Sattorov To‘ychi, Oltiboy Jo‘rayev, Parda Begatov, Xoliqov Hamid, Karimov Mamarajab, Hamroyev G‘ayrat, Esanov Akbar, Yorov Olim, Anvar Shaymardonov, Maxfirat Boboqulova, Azizova Nodira, Qahharova Nargiza, To‘rayeva Hulkar, Qorayeva Matluba, Qahhorova Umida, Hotamova Ma‘rifat, Dilbar Siddiqova, Barno Meliqulovalar milliy qadriyatlarni aks

ettiruvchi dasturlar ustida ishlab respublika, viloyat va tuman miqiyosida o‘tkazilgan tanlovlar va ommaviy tadbirlarda faol ishtirok etib o‘z dasturlarini xalq e‘tiboriga havola etib, xalq olqishiga sazavor bo‘ldilar.

2014-yil “Sharshara” folklor-etnografik jamoasi “Xalq havaskorlik” jamoasi unvoniga sazavor bo‘ldilar. Bu jamoani yangi orzular sari etakladi.

2017-yil “So‘lim Vaxshivorning” Chorbog‘ida to‘y” nomli teatrlashgan konsert hujjatli filmi, 2018-yil “Surxonda bahor” nomli film konserti suratga olindi. Boysun bahori festivaliga jamoa doimiy o‘zining rang-barang dasturi bilan qatnashib kelmoqda.

Olimjon Yarov, Muharram Tog‘ayeva, Faxriddin Qahorov, Anvar Shaymardonov, To‘lqin Toshqulov, Hotamov Abrorlar doimo xalqning urf-odatlarini an‘analarini sayqallab xalqqa namoyish etmoqdalar. Hozirgi kunda jamoaga xalq raqslarini Omonova Zarina, Qahharova Nigina, Davlatova Mahliyolar raqs sirlarini yoshlarga o‘rgatmoqda.

Xalq orasidan qo‘shiq va raqslar, xalq o‘yinlarini to‘plashda o‘qituvchilardan Abdurahmon Ismatullayev, Narzulla Hotamov, Turdi Amonqulov, A‘zam Abdaliyev, Hamid Xoliqovlar yaqindan yordam bermoqdalar. Jamoa o‘z faliyatini davom ettirmoqda. Hozirgi kunda “Sharshara” folklor –etnografik jamoasini badiiy rahbari Faxriddin Qahharov, musiqa rahbari Anvar Shaymardonov, raqs o‘rgatuvchi Zarina Omonovalar faoliyat olib bormoqda. Xalq o‘yinlarini sayqallab xalqqa namoyish etmoqdalar.

Kelajakda xalqimizni madaniy salohiyatini oshirib qadimiy musiqiy merosimizni avlodlardan avlodga etkazishda bel bog‘laganlar. Jamoaning har bir qo‘shig‘ida Vaxshivorning tog‘lari archalarini, bulbullarning navosini Keraga tog‘ning yuksakligini his etasiz. Jamoa repertuaridan joy olgan “Yozi” (Bug‘doy o‘rimida aytiladi), “Do‘ppi tikkin” (Aytishuv), “Bir salom”, “To‘quvchi qiz”, “Navruz yor-yori”, “Vaxshivor yor-yori”, “Surxon sahovati”, “Non qo‘shig‘i”, “Dehqon qo‘shig‘i”, “Tog‘ qizi”, “Kelsa Navruz”, “Zebo qizlarga”, “Tog‘ning suluv qizlari”, “Bahoroyga”, “Aynamov”, “Xurmocha” “Chapakka o‘yini”, “Quloq cho‘zma o‘yini”, “To‘y qo‘shig‘i”, “Jon kampir”, “Guli lola”, “Ohuva”, “Yangamsan”, “Bedana”, “Mavrigi”, “Shukurona” kabi kuy-qo‘shiq va raqslari xalqimizning qalbidan joy olib kelmoqda.

“MAHLIYO” NAMUNALI BOLALAR FOLKLOR-ETNOGRAFIK JAMOSI



Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, qadimiy xalq qo'shiqlari, baxshilari va fidoiy sanatkorlari bilan faxrlanadigan tumanlardan biridir. O'zbek xalqining o'z milliy qadriyatlarini ulug'lash, xalq udumi, urf-odatlarini hurmat qilish, turli marosim qo'shiqlarni o'rganish, vohamizga xos bo'lgan qo'shiqlar, laparlar kuylash, yoshlarni an'analarimizga sodiq insonlar qilib tarbiyalash, yangi istedodlarni kashf etish maqsadida Qumqo'rg'on tuman madaniyat bo'limi tasarrufidagi "Jaloir" madaniyat markazi qoshida "Mahliyo" bolalar ansambli 1997-yilda Jo'ra Namozov rahbarligida tashkil etildi. Bu jamoa tuman, viloyat tadbirlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Oz fursat ichida jamoa o'z muxlislarini topdi va samarali xizmatlari uchun 2002 yil 2-aprelda "Mahliyo" jamoasiga "Namunali bolalar folklor-etnografik jamosi" unvoni berildi.

Bu jamoada hozirgi kunda badiiy rahbar vazifasida Matluba Xudoyberdiyeva, raqs o'rgatuvchi Omonova Gulchehra, musiqa rahbari Mahliyo Amanturdiyevlar o'z ish faoliyatini olib bormoqda. Jamoada 4 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan 30 nafar o'g'il - qizlar, kayvani momolar, sozandayu - xonandalar, laparchilar, yosh havaskor ijrochilar, raqqosalar o'z ish faoliyatini ko'rsatib kelmoqdalar.

Jamoa a'zolari qadimiy cholg'u asboblardan changqovuz, do'mbira, sibizg'a, doira hamda Surxon vohasiga xos urf-odat va marosim kuy qo'shiqlarni mahorat bilan ijro etmoqda. Jamoaning yuqori natijalarga erishishining bosh sabablaridan biri kuy, qo'shiq, raqs, libos va ijroning uyg'unligidir.

"Maxliyo" namunali bolalar folklor-etnografik jamosi sozandalari Z.Omonturdiyev, M.Omonturdiyeva, Sh.Jo'rayeva, Sh.Jo'rayev, S.Abduljamidova, Z.Ergasheva, S.Luqmonova, A.Nurmamatov, S.Nomozova, G.Jo'raboyevlar jamoaning fidoyilari sanaladi.

Jamoaning milliy liboslariga nazar tashlasak, ular Surxon vohasiga xos bo'lib bobolarimizning jelagi, yaqali kuylak, salla, belqars, kovushi, momolarimizning esa kurta, g'ijma ro'mol, kashta gulli ko'ylak, qat-qat sallasi, taqinchoqlardan besh oyog'li sirg'a, nazigardon, po'paklar, do'ppilardan jamoa o'z chiqishlarida foydalanishmoqda. Bu jamoaning repertuarlari bugungi kunda unitilib borilayotgan urf-odatlar, marasimlarini o'zida mujassam etgan.

Milliy kuy qo'shiqlar va raqslari bilan bir qatorda "Maxliyo" jamoasining repertuarlari yildan-yilga shakillanib bormoqda. Ayniqsa, "Sen chaqqonmi - men chaqqon", "Baxshi qiz", "So'zana", "Momam chalgan changqobuz", "Do'mbira chalsa bobom" kabi badiiy kompozitsiyalaridan iborat kuy-ko'shiqlar bolalar tomonidan zavq, shavq bilan ijro etilmoqda.

Viloyat folklor ko'rik tanlovlarida, "Navro'z" umumxalq bayramlarida, eng aziz, eng ulug' bayram mustaqillik bayramlarida, "Boysun bahori" festivalida faol ishtirok etib kelmoqda.

“QO‘NG‘IROT” FOLKLOR-ETNOGRAFIK XALQ DASTASI



“Qo‘ng‘irot” folklor etnografik dastasi 1988-yil 27-dekabrda Qiziriq tuman markazida tashkil etilgan, ushbu jamoa asosan uy bekalaridan tashkil topgan.

O‘zbeklarda “Qo‘ng‘irot” urug‘i bor, ushbu urug‘ O‘zbekistonda yashovchi xalqlar, urug‘larning bittasi hisoblanadi. “Qo‘ng‘irot” so‘zi O‘zbekistonning “Qo‘ng‘irot” urug‘i nomidan olingan. O‘zbeklarda “Qo‘ng‘irot”larning urf-odatlarini, an‘analarini ko‘proq sahnada ko‘rsatib berganligi sababli halq dastasini “Qo‘ng‘irot” deb atagan.

Ushbu jamoaga Qiziriq tumanidagi 18-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining til-adabiyot o‘qituvchisi X.Jo‘rayev rahbarlik qilgan. Jamoa shu yillar mobaynida o‘zbek xalqining milliy unitilib ketgan urf-odatlarini va qo‘shiqlarini xalq ichida yurib, izlanib ijodini yanada boyitib keldi.

Jamoaga O‘zbekiston xalq artisti Yu.Ismatova va T.Otaboyev kelib qatnashchilarga qo‘shiq va raqslarni, xalq kuylariga bastalab yordam ko‘rsatishgan (1989).

2001-yil jamoaga “Qo‘ng‘irot” jamoasiga “Folklor etnografik xalq havaskorlik jamoasi” faxriy unvoni berilgan.

“Qo‘ng‘irot” folklor etnografik xalq dastasi O‘zbekiston Respublikasi televideniya kompaniyasining “Bir o‘lkaki” teleko‘rsatuviga o‘zlarining konsert dasturlari va sahna ko‘rinishlari bilan ishtirok etdi. 2004-yil mart oyida “Oltin beshik” teleko‘rsatuviga qayta suratga olindi.

2011-yil O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 20-yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “O‘lan aytgali keldik” mavzuida an‘anaviy folklor san‘at bayramida “Qo‘ng‘irot” folklor etnografik xalq dastasi faol ishtirok etib jamoa a‘zosi Xayitgul Bo‘riyeva “Nazokatli lapar ijrochisi” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olib deb topildi va diplom va qimmatbaho esdalik sovg‘alari bilan taqdirlangan.

Bundan tashqari “Qo‘ng‘irot” etnografik xalq dastasi badiiy rahbari bo‘lib faoliyat yuritib kelayotgan O‘zbekiston xalq baxshisi Poyanov Abdinazar o‘zining faoliyati davomida jamoa repertuarini yanada boyitib respublika, xalqaro tanlovlarida yuqori o‘rinlarga sazovor bo‘lgan.

Jamoa repertaridan joy olgan “Barchin momo”, “Baxshiyona”, “Bo‘stonlari”, “Surxondaryo”, “Kelag‘ayu-kelag‘ay”, “To‘y bo‘lsina to‘y bo‘lsin”, “To‘yona”, “Surxondaryo qizlar raqsi”, “Chanqovuz raqsi”, “Chillik o‘yini”, “Barchin checha”, “Charx”, “O‘rmak”, “Zuva-zuva”, “Ota allasi”, “Jamalagim”, “Oypari”, “Alpomishning avlodidan kuylayman”, “Bu dunyoda yagona”, “Alla”, “Yor-yor”, “Childirma”, “Yorg‘inchoq”, “O‘nang momo”, “Aytishuv”, “Alpomish va Oybarchin”, “Checha” kabi xalq qo‘shiq va raqslari san‘at ixlosmandlari tomonidan olqishlarga sazovor bo‘lmoqda.

TO'Y MAROSIM QO'SHIQLARI

Boysun yor-yori

“Nikoh to'y” marosimida ijro etiladigan yor-yor qo'shiqlari O'zbekistonning hamma hududlarida keng tarqalgan. “Yor-yor” qo'shiqlarning mavzu doirasi juda keng bo'lib, ularda goh hazil, quvnoq, engil yumor, hajviy ohanglar uchraydi. Boysun yor-yori o'zining matn va kuyining o'ziga xosligi, q'o'shiq` ijro uslubi bilan ajralib turadi. Doira jo'rligida ijro etiladigan bu go'shiq tinglovchi qalbida zavq bag'ishlaydi. Qo'shiq o'lchovi 4/4 bo'lib, o'rtacha tezlikda ijro etiladi. Qizni ota-onasi uyidan uzatayotganda va kuyovning xonadoniga kirib borayotgan paytda “Yor-yor” qo'shiqlarini aytilishi beixtiyor ota-onalar ko'zida sevinch yoshlarini paydo qiladi. Bu qo'shiqda ota-onaning ta'rifi, orzu-umidi, kelin va kuyovning baxti, saodati, muhabbati, vafosi, serfarzand bo'lishlari ishtiyoq bilan kuylanadi.

NAVRO'Z QO'SHIQLARI

Jarchilar qo'shig'i

Jarchilar qo'shig'i ijro davomida aniq diapazon balandligiga ega bo'lmasada, lekin ijrochilar tomonidan katta mahorat talab etiladi. Bu qo'shiq jarchilar qo'shig'i deyilishiga sabab shundan iboratki, “jar” baland va kuchli ovozda aytish ma'nosini bildiradi. Jarchilar chaqirig'i Surxondaryoda marosim to'ylarida, “Navro'z” sayl chaqiruvlarida ham aytiladi. Qo'shiq o'lchovi 2/4 bo'lib, o'rtacha tezlikda, musiqa cholg'ular jo'rligisiz yakkaxon tomonidan ijro etiladi.

Navro'z qo'shig'i

Navro'z (“Boychechak”, “Muborakbod”, “Navro'z qutlug'i” uning turli nomlanishi) bevosita “Navro'z” bayramiga bag'ishlangan tabrik qutlov qo'shiqlaridan biri. Yakka guruh tarzida musiqa cholg'ular jo'rligida aytilgan bu qo'shiq jozibador ohangda ijro etiladi. Bayramona kayfiyat qo'shiqning so'z va kuy mutunosibligida qurilgan. Ufor usuli qo'shiqqa jonliroq sur'atni tashkil etadi.

Sust xotin

“Sust xotin” qadimiy mavsumiy marosim sifatida turli joylarda turlicha shakllarda o'tkazilgan va turlicha nomlangan. Ba'zi joylarda “Sust xotin”, “Talabi boron” (“Yomg'ir talab”), “Suz xotin”, “Suv xotin”, “Chala xotin”, “Chayla qozoq” deb nomlangan. “Sust xotin”

tasvirini ya'ni qo'g'irchoqni ko'targan ayollar xonadonlarga kirib “Sust xotin” qo'shig'ini aytishgan. Xonadon egalari marosim ishtirokchilarini xursandchilik bilan qarshi olishgan va xayr-ehsonlar berishgan. “Sust xotin” qo'shig'idagi naqoratning takrorlanishi satrlarni yodlash va baralla aytish uchun qulaydir. Qo'shiq marosim paytida kuylanar ekan, undagi mazmun va ta'sirchanlik bevosita musiqiy tili va ritmik uslubiga bog'liq bo'ladi. Qo'shiq o'lchovi 2/4 bolib, musiqa cholg'ularsiz o'rtacha tezlikda ijro etiladi.

Lola sayli

Lolajon bahorda tog'ning husniga yanada go'zallik baxsh etuvchi lola o'simligidir. Xalqimiz tomonidan hozirga qadar kuylanib kelinayotgan qo'shiq “lolajon” deb ataladi. Ushbu qo'shiq o'zining yorqin kuy ohanglari bilan shodlik, xursandchilik tuyg'ularini ifoda etgan. Qo'shiq o'lchovi 2/4 bo'lib, naqorat ko'pchilik tomonidan, bandlar esa yakkaxon tomonidan quvnoq ohangda ijro etiladi.

Hey lola

Yakkaxon va guruh tomonidan kuylanadigan bu qo'shiq sho'x, quvnoq, kutarinkilik kayfiyatini baxsh etadi. Chunki lola, ya'ni gulni qiz bolaga o'xshatish chiroyli qo'shiq ohanglarida o'z aksini topa olgan. Qo'shiq o'lchovi 2/4 bo'lib, musiqa cholg'ular jo'rligida ijro etiladi.

Halinchak

Halinchak qo'shig'i faqat qizlar tomonidan “Navro'z” paytlarida ijro etilgan. Qo'shiq lirik ohangda, sekin, mayin ovozda, ravon, ritmik o'lchovida aytiladi. Qo'shiqning ritmi halinchakni tebranishini eslatadi, sinkopa o'lchamli harakat. Ushbu asar o'zbek musiqasiga xos bo'lgan qo'shiq janrida ijod etilgan, ammo bu namuna ko'proq Surxon vohasiga xosdir. Qo'shiq o'lchovi 2/4 bolib, o'rtacha tezlikda ijro etiladi.

Turna keldi

“Navro'z”ning kirib kelishi bilan O'zbekistonimiz janubida turnalarning qator-qator bo'lib uchib kelayotganligini tez-tez kuzatish mumkin. Qadimdan xalqimiz hattoki turnalarning uchish holatiga qarab yilning qanday kelishini ayta olishgan va turnalar haqida qo'shiqlar to'qishib xirgoyi qilishgan. Turnalar pastlab uchsa o'sha yil risqli, unumli, barakali, mo'l ko'lchilik bo'lishini aytishgan. Agar turnalar baland uchishsa qurg'oqchilik, mo'l-ko'lchilik bo'lmasligini bashorat

qilishgan. Mana shunday tabiat qonun qoidalariga e'tibor bergan xalqimiz turnalarning uchib kelishini intizorlik bilan kutishgan, uning go'zalligini yil darakchisi sifatida e'zozlab qo'shiqlar to'qishgan. Bu qo'shiq "Turna keldi" deb nomlanadi. Qo'shiq naqarotdan boshlanib hamma kuylaydi, keyingi bandlar esa yakka ijroda shoshilmasdan ijro etiladi. Qo'shiq o'lchovi 2/4 bo'lib, musiqa cholg'ularsiz o'rtacha tezlikda kuylanadi.

Sumalak

Sumalak "Navro'z" bayramiga tayyorlanadigan taom haqidagi qo'shiq bo'lib, bandi yakkaxon tomonidan sumalak tayyor bo'lganligini bildiruvchi so'zlar bilan boshlanadi. Qo'shiqning asosiy ohangi tertsiya oralig'idagi ikki taktli misrani qamrab oladi. Qo'shiq naqorati guruh tomonidan "vaq vaqa sumalak" so'zlari bilan aytiladi. Qo'shiq o'lchovi 2/4 bolib, ijrosi sho'x, jarangdor, o'ynoqi tarzida ifodalanadi.

Hamal

Surxon vohasida bahor fasli bilan bog'liq marosim qo'shiqlaridan yana biri hamal qo'shig'idir. Unda bahorning kirib kelishi bilan ko'tarinkilik, xursandchilik kayfiyati hamda uning go'zal qizga mengzatilishi sho'x, shodon, jozibali ohanglarda kuylanadi. Shuni ta'kidlash joizki, naqorat va band kuylari hamisha asosiy ifodaga (ladning asosiy bosqich tovush "sol"ga) qaytadi. Lekin har bir yangi bandda yanada rivoj topib kuy dialogini yanada kengaytirib boradi. Qo'shiq kuyi ikki ohang - jumladan tuzilgan va har biri ma'lum darajada kuyning xarakteri va ruhiy kayfiyatini ochib beradi. Qo'shiq o'lchovi 6/8 bo'lib, musiqa cholg'ulari jo'rligida ijro etiladi.

MAVSUMIY MEHNAT MAROSIM QO'SHIQLARI

Qo'sh haydash qo'shig'i

Bu qo'shiq ko'klam davrida dala ishlarini bajarishda muhim o'rinni tutgan ho'kizning mehnati qadrlanib kuylanadi. Dehqonlar qo'sh ho'kizlarga omochni taqishib, yerni shudgor qilishni boshlashgan. Qo'shiq o'lchovi ravon bo'lib, erkin ravishda yurish harakatiga uyg'un, ish jarayoni bilan bog'liq holda ijro etiladi. Qo'shiq jonliroq tezlikda rechitativ holatda bandlar yakka xonanda tomonidan ijro etilsa, "Chuh-ho-chuh" so'zlariga esa qolganlar jo'r bo'lishgan. Qo'shiqning musiqa cholg'ularisiz ijro etilishi xonandalarga o'ta qiyinchilik tug'dirsada, lekin e'tibor va aniqlikni talab etadi. Qo'shiq o'lchovi 6/8 bo'lib, so'z matniga katta e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Maydayo-mayda

Tog'li qishloqlarda dehqonlar yig'ilgan hosilni daladan xirmonga to'plashib, uni quritishib, so'ngra qo'sh ho'kizlar yordamida galagov qilib yanchishgan natijada arpa, bug'doylar o'z poyasidan ajralib don holatiga keladi. O'shanday paytlarda galagov qilayotgan dehqonlar "Mayda qo'shig'ini kuylashgan". Qo'shiq quvnoq ohangda ijro etiladi. Qo'shiqda dehqon ho'kizga buyruq ma'nosidagi so'zlarni aytib uni erkalatib ijro etgan. Qo'shiqda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanining aholisiga xos sheva so'zlari ham uchraydi, ya'ni "seni enang buyurdi", "Suvdana burning jiyirdi". Qo'shiq o'lchovi 2/4 bo'lib, o'rtacha tempda ijro etiladi.

O'roqchilar

Tog'li Boysun tumanida yig'im-terim davrida aytiladigan qo'shiq o'roqchilar qo'shig'i deyiladi. "O'roqchilar" qo'shig'i shaklan ikki qismdan iborat bo'lib, naqorat guruh tomonidan va bandlari yakkaxon bo'lib navbatma-navbat kuylangan. Qo'shiqning o'lchovi 6/8, oxirigacha u o'zgarmaydi. Qo'shiqning o'lchov-ritmikasi xalq so'zlari bilan hamohang, ohang tovushlari so'z bo'g'inlari bilan bog'liq. Doiraning sho'x usuli qo'shiqqa yanada sho'xchanlik baxsh etadi. Mehnat qo'shiqlaridan biri sanalgan mazkur qo'shiq mehnatda ahillikka, hamkorlikka chaqiradi.

Zuhra xola va dehqonlar qo'shig'i

Dehqonlar dalada ish bilan mashg'ul bo'lganliklari sabab, ularga nonushtani ayollar keltirishgan. Bu qo'shiqda Zuhra xola va dehqonlarning hazil-mutoyibasi, o'zaro tanqidlari orqali yerni haydash, don sepish jarayonlari tasvirlanadi. Qo'shiqda dehqonlarning qorinlari ochganligidan shikoyatlariga javob (*Zuhra xola yuguraver, dehqonlar o'ldi ochdan*) sifatida Zuhra opaning yerni chuqurroq haydash, donni sifatliroq sepish lozimligini uqtirish (*Dehqon bobo yer haydar, haydasa ham zo'r haydar*), mehnatda sabr-toqat va sifat hosilning taqdirini belgilashi kuylanadi. Qo'shiqning zamirida asosan mehnat kuylanib, dehqonning ishi sharaflanadi. Bu qo'shiq lapar janriga yaqin bo'lib, asosan yakkaxon (Zuhra xola), naqorat esa ko'pchilik (dehqonlar) tomonidan - "savol javob tarzida" ijro etiladi. Qo'shiq o'lchovi 6/8 bo'lib, jonliroq tezlikda kuylanadi.

TO'Y MAROSIM QO'SHIQLARI

Boysun yor-yori

O'rtacha

Qat - qat - gi - na qat - la - ma, qat - la - nib - di yor, yor.
 Qiz - ni o - lib yan - ga - lar, ot - la - nib - di yor, yor.
 Os - mon - da - gi yul - duz - ni sak - kiz deng - lar yor, yor.
 Sak - kiz qiz - ning sar - do - ri ke - lin deng - lar yor, yor.

Qat-qatgina qatlama,
 Qatlanibdi yor-yor.
 Qizni olib yangalar,
 Otlanibdi yor-yor.

Osmondagi yulduzni,
 Sakkiz denglar yor-yor.
 Sakkiz qizning sardori,
 Kelin denglar yor-yor.

Aravaning tagiga,
 Sepdim kepak yor-yor.
 Kelin oyning seplari,
 Sakkiz ipak yor-yor.

Ola qopdan otining,
 Xurjini bor yor-yor.
 Kuyovto'ra bilmagan,
 Sirlarim bor yor-yor.

Men otimni qo'shmayman,
 Yomon otga yor-yor.
 Qanday javob beramano,
 Qiyomatga yor-yor.

Men kuyovga tiladim,
 Boychibor ot yor-yor.
 Minsa quvnab yayrasin,
 Ul chipor ot yor-yor.

Navro'z qo'shiqlari

Jarchilar qo'shig'i

O'rtacha

Bor, ho, kel, ho, Ha - ma - lam, ha,
 yo'l qay - da? Tez - da cho - pib kel! Yo'l - ni to - pib kel!
 O'y - na - ga - ni kel! Quv - na - ga - ni kel! Sa - yl - ga kel,
 Ho!

Bor ho,
 Kel, ho,
 Hamalam, ha,
 Yo'l qayda?
 Tezda chopib kel!
 Yo'lni topib kel!
 O'ynagani kel!
 Quvnagani kel!
 Saylga kel, ho-o-o!

Jonliroq

Navro'z

mf

Boy - che-chak chi - qib - di, bu - gun Nav - ro'z e - kan!

Ham - ma bir bi - ri - ga ji - gar so'z e - kan.

O - lam ham ba - ro - bar ke - cha kun - duz e - kan.

Boy - che-chak chi - qib - di, bu - gun Nav - ro'z e - kan!

Yan - gi yi - lini - giz mu - bo - rak bo'l - sin, hoy bo - bo!

Yan - gi yi - lini - giz mu - bo - rak bo'l - sin, hoy mo - mo!

Yan - gi yi - lini - giz mu - bo - rak bo'l - sin, hoy o - na!

Boy che-chak chi - qib - di, bu - gun Nav - ro'z e - kan!

f

Hoy bog' bon bo - bo, ni - hol - ga ber - sin ba - ra - ka!

Hoy deh-qon bo - bo, da - lan - ga ber - sin ba - ra - ka!

Hoy cho'pon bo - bo, qo' - ran - ga ber - sin ba - ra - ka!

Bo - che-chak chi - qib - dim bu - gun Nav - ro'z e - kan!

Boy che-chak chi - qib - di, bu - gun Nav - ro'z e - kan!

Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan!
 Hamma bir-biriga jigarso'z ekan.
 Olam ham barobar kecha-kunduz ekan,
 Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan!

Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy bobo!
 Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy momo!
 Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy ona!
 Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan!

Hoy bog'bon bobo, niholga bersin baraka!
 Hoy dehqon bobo, dalanga bersin baraka!
 Hoy cho'pon bobo, qo'rangga bersin baraka!
 Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan!

Shoshilmay

Sust xotin

f
Sust xo - tin, suz - ma xo - tin, ko' - lan - ka - si may - don xo - tin!
Yom - g'ir yog' - dir ho'l bo'l - sin, ye - ru ja - hon ko'l bo'l - sin.
May - sa - lar qu - loch yoz - sin, su - tu qa - tiq mo'l bo'l - sin.
Sust xo - tin, suz - ma xo - tin, ko' - lan - ka - si may - don xo - tin!

Naqorat:

Sust xotin, suzma xotin.
Ko'lankasi maydon xotin!

Yomg'ir yog'dir ho'l bo'lsin,
Yeru jahon ko'l bo'lsin,
Maysalar quloch yozsin,
Sutu qatiq mo'l bo'lsin.

Naqorat takrorlanadi:

Yomg'ir yog'dir, ko'k bo'lsin,
Qurg'oqchilik yo'q bo'lsin,
Arpa, bug'doy bosh tortsin,
Kayvonilar osh tortsin!

Naqorat takrorlanadi:

Yomg'ir yog'dir, ho'l bo'laylik,
Biz ham senga jo'r bo'laylik,
Ko'klamda o'ynab-kulib,
Ham sho'xu, ham zo'r bo'laylik.

Naqorat takrorlanadi:

Lola sayli (Lolajon)

O'rtacha tez

mf
Lo - la, lo - la, lo - la - jon, o' - sar jo - ying - da - la - da.
Lo - la, lo - la, lo - la - jon, chi - da - ding - mu ja - la - ga?
f
Ja - la yog' - sa qo'rq - ma - gin, sel - lar oq - sa, qo'rq - ma - gin.
Chi - ro - yi - ni o - chay deb, qiz - lar taq - sa, qo'rq - ma gin.

Naqorat:

Lola, lola, lolajon,
O'sar joying dalada.
Lola, lola, lolajon,
Chidadingmu jalaga?

Jala yog'sa, qo'rqmagin,
Sellar oqsa, qo'rqmagin.
Chiroyini ochay deb,
Qizlar taqsa, qo'rqmagin.

Naqorat takrorlanadi:

Sayilimiz sho'x bo'lsin,
Dardu alam yo'q bo'lsin,
Sen qip-qizil yashnagin,
Oq-ko'ngillar to'q bo'lsin.

Naqorat takrorlanadi:

Quvnoq

Hey lola

Lo - la - cha - ga i - shim bor, hey lo - la,
 Kis - sam - da kish - mi - shim bor hey lo - la.
 Kish-mish bo'l - sa may - li - ga, hey lo - la, hey
 Qiz bo - la - da i - shim bor, hey lo - la.

Lolachaga ishim bor, hey lola,
 Kissamda kishmishim bor, hey lola.
 Kishmish bo'lsa mayliga, hey lola,
 Qiz bolada ishim bor, hey lola.

Tom ustida piyola, hey lola,
 Ichi to'la gul lola, hey lola.
 Nari turing bo'z bola, hey lola,
 Uyaladi qiz bola, hey lola.

Tom istida nelar bor, hey lola,
 O'rdak bilan g'ozlar bor, hey lola.
 O'rdak ketib g'oz qolsin, hey lola,
 Dushman o'lsin, do'st qolsin, hey lola.

Yugur, yugur men turay, hey lola,
 Boshini gulga o'ray, hey lola.
 Senga kelgan baloga, hey lola,
 O'zim ko'ndalang bo'lay, hey lola.

Halinchak

Mayin, sekin

Ha lin - chak, ho ha - lin - chak, ha - lin - chak - da ke - lin - chak.
 Salt - li - gi - ni so - g'in - ga - no ke lin - chak ho ku yin chak.
 Ha lin - chak, ho ha - lin - chak, ha - lin - chak - da ke - lin - chak.

Halinchak, ho halinchak,
 Halinchakda kelinchak.
 Saltligini sog'ingan,
 Kelinchak, ho-kelinchak.

Halinchak, ho halinchak,
 Halinchakda kelinchak.
 Boyni qo'yga kuzatib,
 Uchavergin halinchak.

Halinchak, ho halinchak,
 Halinchakda kelinchak.

O'rtacha

Turna keldi

mf

Ar - g'am - chi, gi - lam - chi. Ar - g'am - chi, gi - lam - chi.
 Tur - na bo'y - lik bo - la - jon, ko' - ka - lam - ga ti - lam - chi.
 Ar - g'am - chi, gi - lam - chi. Ar - g'am - chi, gi - lam - chi.

Arg'amchi, gilamchi.
 Turna bo'ylik bolajon,
 Ko'kalamga tilamchi,
 Arg'amchi, gilamchi.

Turna desam, turumli,
 Keng dalaga qo'nimli.
 Turnalar uchsa pastlab,
 Risqing kelar unumli.
 Arg'amchi, gilamchi.

Turna o'zi qurumli,
 Usti qora, bo'yni oq.
 Turna uchsa balandlab,
 Yil keladi qurumsoq.
 Arg'amchi, gilamchi.

Turna - tillo tarozi,
 Obi - havoga qozi,
 Turna uchsa yurtingga,
 Salqin keladi yozi,
 Arg'amchi, gilamchi.

Sumalak

O'rtacha tez

Tay - yor bo'l - di dosh - qo - zon, xoh - la - gan o -
 dam kel - sin. Su - ma - lak yey - man de - ga - no,
 kaft - gi - ri - ni ob - ke - sin. Vaq - va - qa su - ma - lak,
 vaq - va - qa. Su - ma - la - gim pi - sha - di - ey,
 qo - zon - ga yo - pi - sha - di. Sa - ra - ton - da
 u - rush - ga - ne, Nav - ro'z - da to - pi - sha - di.
 Vaq - va - qa su - ma - lak, vaq - va - qa. Qo - zon vaq - vaq
 qay - nay - di - ey, uy c - ga - si ux - lay - di.
 Su - ma - lak - ni kov - la - ga - ne, qiz - lar sa - qich
 chay - nay - di. Vaq - va - qa su - ma - lak, vaq - va - qa.
 Vaq - va - qa su - ma - lak, vaq - va - qa.

Tayyor bo'ldi doshqozon,
Xohlagan odam kelsin.
Sumalak yeyman degano,
Kaftgirini opkesin.
Vaq-vaqa sumalak, vaq-vaqa.


Sumalagim pishadi-ey,
Qozonga yopishadi.
Saratonda urushgan-ey,
Navro'zda topishadi.
Vaq-vaqa sumalak, vaq-vaqa.

Qozon vaq-vaq qaynaydi-ey,
Uy egasi uxlaydi.
Sumalakni kavlagan-ey,
Qizlar saqich chaynaydi.
Vaq-vaqa sumalak, vaq-vaqa.


Sumalagim pishadi-ey,
Qozonga yopishadi.
Sumalakxo'r qo'shnilar-ey,
Jom olib chopishadi.
Vaq-vaqa sumalak, vaq-vaqa.

Hamal


Quvnoq, sho'xroq
Naqorat




Ha-mal, ha-mal der-la-ro, ti-lin-ga a-sal der-la-ro.



A-zal-dan a-zal der-la-ro ha-mal-oy go'-zal der-la-ro.




Ha-mal qi-zi hur qi-zoy qo-shi qa-ro qun-du-zoy.



Yo-noq-la-ri yul-du-zoy, tez-roq ja-mol ko'r-gaz-oy.

Naqorat




Ha-mal, ha-mal der-la-ro, ti-lin-ga a-sal der-la-ro.



A-zal-dan a-zal der-la-ro ha-mal-oy go'-zal der-la-ro.




Ha-mal qi-zi hur qiz-oy, lab-gi-na-si qir-miz-oy.




Teng-dir ke-cha kun-duz-oy, tez-roq ko'r-sat-sin chi-roy.

Naqorat



Ha-mal, ha-mal der-la-ro, ti-lin-ga a-sal der-la-ro.



A-zal-dan a-zal der-la-ro ha-mal-oy go'-zal der-la-ro.

Naqorat:
Hamal-hamal, derlaro,
Tilingga asal, derlaro.
Azaldan-azal, derlaro,
Hamaloy go'zal derlaro.

Hamal qizi hur qizoy,
Qoshi qaro qunduzoy,
Yonoqlari yulduzoy,
Tezroq jamol ko'rgazoy.

Naqorat takrorlanadi...

Hamal qizi hur qiz oy,
Labginasi qirmizoy.
Tengdir kecha kunduzoy,
Tezroq ko'rsatsin chiroy.

Naqorat takrorlanadi...

Hamal, hamal qilsino,
Toshni tamal qilsino.
Nasibamiz bersino,
Gapga amal qilsino.

Naqorat takrorlanadi...

MAVSUMIY MEHNAT MAROSIM QO'SHIQLARI

Qo'sh haydash qo'shig'i

Jonliroq
f

u - chan - ga tur - tib
Qo'sh - ga il - dam yur - ma - sang.
qo' - ya - man. Yax - shi yur - sang. sho - xing - ga
Shox - la - ring bor
moy - lar sur - tib qo' - ya - man.
oy - na - day.
sho - mi - yon. ko'z - la - ring bor
to' - ti bi - lan
Sen - dan bo'l - gan bo - la - lar,
jo - ni - vor,
may - na - day. Qo'sh - ni tort - gin
Sa - ra - ton - da
tu - mor to - qay sho - xin - ga.
ha - qing - ga.
ish - la - gin, so - mon qo - lar
chu - ho, chu,
Qo'sh - ga qo'sh - dim qo'sh ho' - kiz,
chu - ho - chu. Ik - ki - si ham ish ho' - kiz,
chu - ho, chu. O'z i - shing - ni

tin - di - rib, chu - ho, chu, chu - ho, chu.
 Ho - vu - ring - dan tush ho' - kiz, chu - ho, chu.
 chu - ho, chu. Qo - ra mo - lim, qo - bi - lim,
 chu - ho, chu, chu - ho, chu. Qo - ra yer - ni
 qoq yor - gan, meh - na - ti - ning zo' - ri - dan,
 tep - pa - si - dan shox yor - gan. chu - ho, chu
 chu - ho, chu, chu - ho, chu, chu - ho, chu.

Qo'shda ildam yurmasang,
 Uchanga turtib qo'yaman.
 Yaxshi yursang, shoxingga
 Moylar surtib qo'yaman.
 Shoxlaring bor shomiyon,
 Ko'zlaring bor oynaday.
 Sendan bo'lgan bolalar,
 To'ti bilan maynaday.
 Qo'shni tortgin, jonivor,
 Tumor toqay shoxingga,
 Saratonda ishlagin,
 Somon qolar haqingga.
 Qo'shga qo'shdim qo'sh ho'kiz,

Ikkisi ham ish ho'kiz,
 Chu-ho, chu, chu-ho, chu.
 O'z ishingni tindirib,
 Chu-ho, chu, chu-ho, chu.
 Hovuringdan tush ho'kiz,
 Chu-ho, chu, chu-ho, chu.
 Qora molim, qobilim,
 Chu-ho, chu, chu-ho, chu.
 Qora yerni qoq yorgan,
 Mehnatining zo'ridan,
 Tepasidan shox yorgan,
 Chu-ho, chu, chu-ho, chu.
 Chu-ho, chu, chu-ho, chu.

Mayda-mayda

Quvnoq
mf

May - da de - sam. xo'p de ding, may - da - yo, ho ma - da,
 so - mo - ni - ni ko'p de - ding, may - da - yo, ho ma - da.
 May - da qil - sa ya - ra - shar, may - da - yo, ho may - da,
 ba - ri jo - ni - vor qa - ra - shar, may - da - yo, ho, may - da.
 Xo'p may - da, may - da, may - da, may - da - yo, ho may - da
 so - mo - ni sen - ga foy - da, may - da - yo, ho may - da,
 may - da - yo, ho may - da.

Mayda desam, xo'p deding, mayda-yo,
 mayda,
 Somonini ko'p deding, mayda-yo, mayda.
 Mayda qilsa yarashar, mayda-yo, mayda,
 Bari jonivor qarashaq, mayda-yo, mayda.
 Xo'p mayda, mayda, mayda, mayda-yo,
 mayda,
 Somoni senga foyda, mayda-yo, mayda.

Xo'p mayda, mayda, mayda, mayda-yo,
 mayda,
 Somoni senga foyda, mayda-yo, mayda.
 Seni enang buyurdi, mayda-yo, mayda,
 Suvdana burning jiyirdi, mayda-yo,
 mayda.
 Seni maydaga qo'shsin deb, mayda-yo,
 mayda,
 Boboyi dehqon buyurdi, mayda-yo,
 mayda.

Qayirib, qayirib bosgina, mayda-yo, mayda,
 Qolmasin, o'tsin jonivor, mayda-yo, mayda,

tin - di - rib, chu - ho, chu, chu - ho, chu.
 Ho - vu - ring - dan tush ho' - kiz, chu - ho, chu.
 chu - ho, chu. Qo - ra mo - lim, qo - bi - lim,
 chu - ho, chu, chu - ho, chu. Qo - ra yer - ni
 qoq yor - gan, meh - na - ti - ning zo' - ri - dan.
 tep - pa - si - dan shox yor - gan. chu - ho, chu
 chu - ho, chu, chu - ho, chu, chu - ho, chu.

Qo'shda ildam yurmasang,
 Uchanga turtib qo'yaman.
 Yaxshi yursang, shoxingga
 Moylar surtib qo'yaman.
 Shoxlaring bor shomiyon,
 Ko'zlaring bor oynaday.
 Sendan bo'lgan bolalar,
 To'ti bilan maynaday.
 Qo'shni tortgin, jonivor,
 Tumor toqay shoxingga,
 Saratonda ishlagin,
 Somon qolar haqingga.
 Qo'shga qo'shdim qo'sh ho'kiz,

Ikkisi ham ish ho'kiz,
 Chu-ho, chu, chu-ho, chu.
 O'z ishingni tindirib,
 Chu-ho, chu, chu-ho, chu.
 Hovuringdan tush ho'kiz,
 Chu-ho, chu, chu-ho, chu.
 Qora molim, qobilim,
 Chu-ho, chu, chu-ho, chu.
 Qora yerni qoq yorgan,
 Mehnatining zo'ridan,
 Tepasidan shox yorgan,
 Chu-ho, chu, chu-ho, chu.
 Chu-ho, chu, chu-ho, chu.

Mayda-mayda

Quvnoq
mf

May - da de - sam, xo'p de ding, may - da - yo, ho ma - da,
 so - mo - ni - ni ko'p de - ding, may - da - yo, ho ma - da.
 May - da qil - sa ya - ra - shar, may - da - yo, ho may - da,
 ba - ri jo - ni - vor qa - ra - shar, may - da - yo, ho, may - da.
 Xo'p may - da, may - da, may - da, may - da - yo, ho may - da
 so - mo - ni sen - ga foy - da, may - da - yo, ho may - da,
 may - da - yo, ho may - da.

Mayda desam, xo'p deding, mayda-yo,
 mayda,
 Somonini ko'p deding, mayda-yo, mayda.
 Mayda qilsa yarashar, mayda-yo, mayda,
 Bari jonivor qarashaq, mayda-yo, mayda.
 Xo'p mayda, mayda, mayda, mayda-yo,
 mayda,
 Somoni senga foyda, mayda-yo, mayda.

Qayirib, qayirib bosgina, mayda-yo, mayda,
 Qolmasin, o'tsin jonivor, mayda-yo, mayda,

Xo'p mayda, mayda, mayda, mayda-yo,
 mayda,
 Somoni senga foyda, mayda-yo, mayda.
 Seni enang buyurdi, mayda-yo, mayda,
 Suvdana burning jiyirdi, mayda-yo,
 mayda.
 Seni maydaga qo'shsin deb, mayda-yo,
 mayda,
 Boboyi dehqon buyurdi, mayda-yo,
 mayda.

O'roqchilar qo'shig'i

Tezroq

Yan - qa - ni das - ta bog' - la - yo, das - ta - ni as - ta bog' - la.
 Tok - cha - ga qo'y ta - ro - g'ing, qo'l - ga ol - gin qay - ro - g'ing.
 Ar - pa, bug' doy pi - shib - di - yo, charx lab chiq - qin o' - ro - g'ing
 Naqorat:
 Yan - qa - ni das - ta bog' - la - yo, das - ta - ni as - ta bog' - la.
 O' - roq - chi - lar hor - ma - sin, g'al - la is - rof bo'l - ma - sin.
 Qiz - lar - dan bir xa - bar o - le, no - zik bel - lar tol - ma - sin.
 Naqorat:
 Yan - qa - ni das - ta bog' - la - yo, das - ta - ni as - ta bog' - la.

Yanqani dasta bog'layo,
 Dastani asta bog'la.
 Tokchaga qo'y tarog'ing,
 Qo'lga olgin qayrog'ing.
 Arpa, bug'doy pishdi-ey,
 Charxlab chiqqin o'rog'ing.
 Naqorat takrorlanadi...
 O'roqchilar bor bo'lsin,
 Baxil nonga zor bo'lsin.
 G'ayrat qiling, jo'ralare,
 Bobo dehqon yor bo'lsin.

Naqorat takrorlanadi...
 Bog'lab bosgin chanaga,
 Qoldirmagin dalada.
 Somonni to'k qo'raga,
 Dononi to'k o'raga.
 Naqorat takrorlanadi...
 O'roqchilar hormasin,
 G'alla isrof bo'lmasin.
 Qizlardan bir xabar ol,
 Nozik bellar tolmasin.
 Naqorat takrorlanadi...

Zuhra xola va dehqonlar qo'shig'i

Jonliroq

Naqorat:

Bir ma - ta - lim bor ma - osh - dan, tish - la - ri te - mir tosh - dan.
 Zuh - ra xo - la, yu - gu - ra - ve - ring dehqon - lar o'l - di och - dan.
 Dehqon bo - bo yer hay - dar, hay - da - sa ham zo'r hay - dar.
 Dehqon bo - bo yer hay - dar, hay - da - sa ha, zo'r hay - dar.
 Qor - ni och - sa na qil - sin, bo - bo ho' - kiz - ni qay - tar.
 Naqorat:
 Bir ma - ta - lim bor ma - osh - dan, tish - la - ri te - mir tosh - dan.
 Zuh - ra xo - la, yu - gu - ra - ve - ring dehqon - lar o'l - di och - dan.
 Yer hay - da - sang soz hay - da, yer - ni chu - qur qoz, hay - da.
 Och - qop yo - mon hay - da - ma - ey, yax - shi hay - da soz hay - da.

Naqorat (Ko'paylashib)

Bir matalim bor maoshdan.
Tishlari temir toshdan,
Zuhra xola yuguravering,
Dehqonlar o'ldi ochdan.

Zuhra xola: Dehqon bobo yer haydar,
Haydasa ham zo'r haydar.
Qorni ochsa na qilsin,
Bobo ho'kizni qaytar.

Naqorat takrorlanadi...

Yer haydasang soz hayda.
Yerni chuqur, qoz hayda.
Ochqop yomon haydama-ey,
Yaxshi hayda, soz hayda.

Zuhra xola: Donni sochsang, to'la sol,
Har donini bo'lak soch.
Ochqop yomon sochmagin,
Hosilini bo'lak soch.

Naqorat takrorlanadi...

Havor-havor

O'rtacha, shoshilmay

Ko'z teg - ma-sin tu - yo - g'in - ga, ha - vor, ha - vor. Tosh teg - ma-sin
tu - yo - g'in - ga ha - vor, ha - vor. As - ta, as - ta je - ba - la,
ha - vor, ha - vor. Quv - vat ber - sin o - yo - g'in - ga ha - vor,
ha - vor. U - zoq yo'l - da ham - ro - him, ha - vor, ha - vor.
Xi - la ber - sam O - g'ir yuk - dan hin - qil - lab, ha - vor, ha - vor.
Yo'r - g'a - la - gin ding - gil - lab, cho'q - qing - da, ha - vor, ha - vor.
ha - vor, ha - vor, ha - vor, ha - vor, ha - vor.

Ko'z tegmasin tuyog'inga, havor-havor.
Tosh tegmasin tuyog'inga, havor-havor.
Asta-asta jebala, havor-havor.
Quvvat bersin oyog'ingga havor-havor.

Uzoq yo'lda hamrohim, havor-havor.
Og'ir yukdan hinqillab, havor-havor.
Xila bersam cho'qqingga, havor-havor.
Yo'rg'alagin dingillab, havor-havor.

TURLI MAVZUDAGI XALQ QO'SHIQLARI

Kovushim

Sho'xroq

f

Ko - vu - shim, tang - la qu - shim, bog' lar - ni kez - gan ko - vu - shim.

Sab - za - i o - bi ra - von, tog' - lar - ni kez - gan ko - vu - shim.

Men ko - vu - shim - ni yo' - qot - dim la - qay - lar bo - zo - ri - da.

O'g' - ri - lar o - lib ket - di yo - xo - ti - ni, yo qi - zi - ga.

O'g' - ri - lar o - lib ket - di yo xo - ti - ni, yo qi - zi - ga.

Naqorat:

Kovushim, tangla qushim,
 Bog'larni kezgan kovushim,
 Sabzai obi ravon,
 Tog'larni kezgan kovushim.
 Men kovushimni yo'qotdim,
 Laqaylar bozorida.
 O'g'rilar olib ketdi,
 Yo xotini, yo qiziga.
 Naqorat takrorlanadi:
 Kovushimning charimi
 Ho'kizning o'rtan belidan.
 Yirtilib, yorilishi,
 Issiq-sovuqning zahmidan.
 Naqorat takrorlanadi:

Boy bola

O'rtacha tez

A - ha, a - ha, a - ha, a - ha.

Ay - la - na - yin bo' - ying - da - ne boy bo - la a - ha,

a - ha, Ay - la - na - yin bo' - ying - da - ne boy bo - la

Boy - sun to - g'i qa - la - ma - cy boy bo - la yor - ning so - chi

u - la - ma - cy boy bo - la, Boy - sun e - li boy bo' - sin - ey

boy bo - la, yo - mon - lik - ni ti - la - ma - cy boy bo - la.

a - ha, a - ha, Ay - la - na - yin bo' - ying - da - ne

boy bo - la Boy - sun tog' - ning qal' - a - si - ey

i - chi - da yo'q a - la - si - ey boy bo - la. O'z - be - gim - ning

u - lu - g'i - cy boy bo - la, shu Va - tan - ning bo - la - si - ey

boy bo - la. a - ha, a - ha, Ay - la - na - yin

bo' - ying - da - ne boy bo - la a - ha, a - ha, hey!

Naqorat:

Aha, aha, aha,

Aylanayin bo'yingdaney boy bola.

Boysun tog'i qalama, boy bola,
Yorning sochi ulama, boy bola.
Boysun eli boy bo'lsin-ey, boy bola,
Yomonlikni tilama-ey, boy bola.

Naqorat:

Boysun tog'ning qal'asi, boy bola,
Ichida yo'q alasi-ey, boy bola.
O'zbekimning ulug'i-ey, boy bola,
Shu Vatanni bolasi-ey, boy bola.

Naqorat:

Ketmon chopdi bulog'i-ey, boy bola,
To'dasiyu chorbog'i-ey, boy bola.
Etagidan ko'paysin-ey, boy bola,
Arimasin timnog'i-ey, boy bola.

To'n tikish

Mayin, sekin

Te - gir-mon-ning shaq-sha - qa - si ta - ro - sha-dur,
bek a - kam - ga a' - lo to'n - lar ya - ro - sha - dur.
A' - lo to'n-ning ji - yak - la - ri so - ri bo' - lu - re,
to'n kiy-gan-ning no - mus bi - lan o - ri bo' - lur.
O - g'am to' - ni ko' - zim to' - ni, tik - lab, tik - lab ti - kay u - ni.
Yo - rim to' - ni jo - nim to' - ni, jo - nim be - rib ti - kay u - ni.
Te - gir - mo - ni ay - lan - ti - rar char - xi bor - dur,
To'n kiy - ma - gan, yor quch - ma - gan xo - ru - zor - dir.
Har qa - ti - ni si - lab siy - pab pax - ta sol - dim - ey,
zar yo - qa - li to'n kiy - gan - ni jon - dan suy - dim.
O'ng - dan qo - vo - g'im uch - di - ya, so - chim be - lim - ga tush - di - ya.
Chap - dan qo - vo - g'im uch - di - ya, yo - rim e - sim - ga tush - di - ya.

Tegirmonning shaq-shaqasi taroshadur,
Bek akamga alo to'nlar yaroshadur.
Alo to'nning jiyaklari sori bo'lur-ey,
To'n kiyganng nomus bilan ori bo'lur.

Og'am to'ni-ko'zim to'ni,
Tiklab, tiklab tikay uni.
Yorim to'ni, jonim to'ni
Jonim berib tikay uni.

Tegirmonning aylantirar charxi bordur,
To'n kiyman, yor quchmagan xoru-zordur.
Har qatini silab-siypab paxta yozdim-ey,
Zar yoqali to'n kiyganni jondin suydin.

O'ngdan qovog'im uchdi-ya,
Sochim belimga tushdi-ya.
Chapdan qovog'im uchdi-ya,
Yorim esimga tushdi-ya.

Kim oladiyo shuginaniyo?

O'rtacha

Kim o - la - di - yo. shu - gi - na - ni - yo? Men o - la - ma - no, shu - gi - na - ni - yo.
Bo tir bo'l-sang ham o' zing ni ko'r sat, sho tir bo'l-sang ham o' zing ni ko'r sat.
G'a - jir bo'l-sang ham o' - zing - ni ko'r - sat, ep - chil bo'l-sang ham
o' - zing - ni ko'r - sat. O - lol - may - sa - no, shu - gi - na - ni - yo.

Ko'pchilik bo'lib:

Kim oladi-yo shuginani-yo?

Talabgor:

Men olaman-o shuginani-yo.


Hamma:

Botir bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat,
Shotir bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat,
G'ajir bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat,
Epchil bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat,
Ololmaysan-o, shuginani-yo.

Qaynog'a va yanganing aytishuv qo'shig'i

O'rtacha


Qaynog'a



Yangasi:



Ko'paylashib:



Qaynog'a: Andiringdan, yangajon,
Mandringdan, yangajon.
Kulcha yopib non yegan,
Tandiringdan yangajon.
Zar devolu palaging,
Un elagan elaging.
Xamiringni mushtlagin,
Og'rimasin bilaging.

Yangasi: Andirimni, qaynog'a,
Mandirimni, qaynog'a.
Archa o'tin qizitgan,
Tandirimni qaynog'a.

Ko'paylashib: Qallama patir,
Choppoti chotir.
Gijdai mujda,
Ko'mmayu qotir.
Pishir, pishir yangajon,
Pishir, pishir yangajon.

Qaynog'a: Undan o'ting, yangajon,
Mundan o'ting, yangajon.
Orqasini oldirmay,
Nonni yoping, yangajon.
Tandiringni to'basi,
Jebalagan jebasi.
Xamiringni ko'tarsin,
Singlisi-yo opasi.

Yangasi: Nondan oling, qaynog'a,
Suvga soling, qaynog'a.
Shirmoyini ivitib,
To'yib oling, qaynog'a.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2018.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Abdullayev R.S. Обрядовая музыка Центральной Азии. - T.: Fan, 1994.
4. Abdullayev R.S. Markaziy Osiyo marosim qo'shiqlari. - T.: Fan, 1994.
5. Toshmatov O'. Folklor qo'shiqlari. - T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2003.
6. G'ofurov H. Xalq o'yinlari, qo'shiqlari va an'alariga bir nazar. - T.: Kamalak, 1992.
7. Naimov M.O'. Surxon qo'shiqlari. I-qism. - Termiz: Jayxun, 1997.
8. Naimov M.O'. Surxon qo'shiqlari. II-qism. - Termiz: Jayxun, 2000.
9. Naimov M.O'. Surxon qo'shiqlari. III-qism. - T: Yangi asr avlodi, 2010.
10. Naimov M.O'. Qadim Surxon navolari. - T.: San'at, 2006.
11. Naimov M.O'. Folklor qo'shiqlari. - T.: Turon zamin ziyo, 2017.
12. Qurbonov S.X. Folklor musiqa o'qitish metodikasi. - T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2021.
13. Sunnatillayev A.S. Folklor-etnografik jamoalar bilan ishlash uslubiyoti. O'quv qo'llanma. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti. - T.: 2022.

MUNDARIJA:

So'z boshi	3
"Boysun" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi	4
"Quralay" bolalar folklor-etnografik namunali jamoasi	7
"Bulbuligo'yo" folklor-etnografik xalq havaskorlik ansambli	9
"Jayhun" folklor-etnografik xalq havaskorlik ansambli	12
"Jarqo'rg'on" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi	14
"Sharshara" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi	16
"Mahliyo" namunali bolalar folklor-etnografik jamosi	18
"Qo'ng'iroq" folklor-etnografik xalq dastasi	20
To'y marosim qo'shiqlari	28
Boysun yor-yori	28
Navro'z qo'shiqlari	29
Jarchilar qo'shig'i	29
Navro'z qo'shig'i	30
Sust xotin	32
Lola sayli	33
Hey lola	34
Halinchak	35
Turna keldi	36
Sumalak	37
Hamal	39
Mavsumiy mehnat marosim qo'shiqlar	41
Qo'sh haydash qo'shig'i	41
Maydayo-mayda	43
O'roqchilar	44
Zuhra xola va dehqonlar qo'shig'i	45
Havor-havor	47
Turli mavzudagi xalq qo'shiqlari	48
Kovushim	48
Boy bola	49
To'n tikish	51
Kim oladi-yo shuginani-yo?	53
Qaynog'a va yanganing aytishuv qo'shig'i	54

Naimov Muzaffar O'rinovich


**SURXONDARYO FOLKLOR-ETNOGRAFIK
XALQ HAVASKORLIK JAMOALARI**

1-qism

Muharrir: S.Mannopov
Texnik muharrir: R.Axmedov
Sahifalovchi/Dizayner: D.Sobirova

Bosishga ruxsat etildi: 2023. Nashriyot bosma tabog'i: 3,625.
Shartli bosma tabog'i: 1,8125. Bichimi: 84x108 1/16.
Adadi: 100

"Poligraf Super Servis" MCHJ
Manzil: 150100, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Aviasozlar
ko'chasi, 2-uy



«ClassiC»
nashriyoti